

VIII. CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 7403 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 139 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 264 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 17 178,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 109,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 138,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 620,1 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 420,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, %da



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ulushi, %da




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 4 222 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 193 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 12 619,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 12 080,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % ga to'g'ri keldi Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (4,7 m.), Oltiariq (9,8 m.), Bag'dod (6,5 m.) va Rishton (2,5 m.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 921 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 916 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 873,5 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Mas'ul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-98-82 (4090)